

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, I(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Jo'raboyev, B. b. s. (2021). Ingliz tili darslarida haqiqiy materiallardan foydalanish. Ta'lif fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).
5. O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarori Lex.uz.<https://lex.uz/acts/-5085887>

## **O'ZBEK TILIDA IQTISODIY TERMINLARNING TASHQI MANBALARI ORQALI BOYIB BORISHI**

**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

SamISI O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi mudiri, dotsent.

**Annotatsiya:** Bu ilmiy maqolada "Raqobatbardosh iqtisodiyot" ifodasi bilan ifodalangan milliy iqtisodiyot, maqbul sur'atlarga va munosibliklarga asoslangan, xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlar, aholi turmush darajasini doimiy ravishda yaxshilanishiga xizmat qiladigan bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlab chiqilgan xo'jalik mexanizmi, ishlab chiqarish resurslari erkin harakatlanadigan va bozor mexanizmi yordamida tartibga solinadigan ochiq iqtisodiy tizim tushuniladi.

**Kalit so'zlar:** Raqobatbardosh iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarish resurslari, ochiq iqtisodiy tizim.

**Аннотация:** В этой научной статье под термином "конкурентная экономика" подразумевается национальная экономика, основанная на оптимальных темпах и приемлемых условиях развития предпринимательской деятельности на основе частной собственности, хозяйствственный механизм, разработанный на основе законов рыночной экономики, служащий постоянному повышению уровня жизни населения, открытая экономическая система, в которой производственные ресурсы свободно перемещаются и регулируются с помощью рыночного механизма понятно.

**Ключевые слова:** Конкурентная экономика, народное хозяйство, предпринимательство, рыночная экономика, производственные ресурсы, открытая экономическая система.

**Abstract.** In this scientific article, the term "competitive economy" refers to a national economy based on optimal rates and acceptable conditions for the development of entrepreneurial activity based on private ownership, an economic mechanism developed on the basis of the laws of a market economy that serves to constantly improve the standard of living of the population, an open economic system in which production resources move freely and are regulated using the market mechanism is clear.

**Keywords:** Competitive economy, national economy, entrepreneurship, market economy, production resources, open economic system.

**Kirish:** Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Harakatlar strategiyasi" doirasida 2017-2021 yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali O'zbekiston Respublikasini yangi taraqqiyot bosqichida rivojlantirish maqsadida davlatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashni, xalqi farovonligini ta'minlashni va harakatlar strategiyasi bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishni davom ettiradi. Mustaqillikka erishganimizdan hozirgacha, yuqorida ikki mazkur maqsadga mo'ljallangan holda iqtisodiyotni rivojlantirish va xalq farovonligini ta'minlashda chuqur muvaffaqiyat ko'rishmoqdamiz. Innovatsion iqtisodiyot Jaxon bo'yicha rivojlanayotgan, bugungi kunda sur'atlar bilan namoyon bo'lmoqda. Bu tendentsiya, iste'molchilar talablarini to'liq qondirish, iqtisodiyotning zamонавиь соҳаларда меҳнат unumdarligini yuqori darajada oshirish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

**Asosiy qism:** Hozirgi O'zbekistonda ona tili bilan birga ingliz va rus tillarini bilish mutaxasislik sohasida katta yordam beradi va sohadagi yutuqlarni o'rganishni kengaytiradi. Ayniqsa, ba`zi bir holatlarda ya`ni bir davlat boshqa davlat bilan iqtisodiy shartnoma imzolayotganda yoki turli xil diplomatik munosabatlar, xalqaro aloqalarni o'rnatish paytida xorijiy tillarni biladigan soha vakillariga zarurat tug'iladi. Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o`ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so'z va terminlar aniq, lo`nda va mantiqan asoslangan bo`lmog'i lozim. Mamlakat prezidenti Shavkat Mirziyoyevning boshqarishida, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan "Harakatlar strategiyasi"ning bir qismi sifatida, O'zbekiston fuqarolari uchun tabiiy huquq va mustaqillik haqida so'z yuritilmoqda. Bu strategiya jamiyat rivojining asosi, bugungi va kelgusi taraqqiyotning shartlari, barcha islohotlarimizning maqsadi, va umuman, barcha amal qiladigan bosh tamoyillarni ta'riflaydi. [1]

Iqtisodiy terminlarni tashqi manbalar bilan boyib borish - bu iqtisodiy terminlarni tashqi manbalardan olish, masalan, xalqaro tashqi manbalar yoki internet manbalaridan olish, degan ma'noda ishlataladi. Bu usul bilan iqtisodiy terminlarga oid ma'lumotlarni keng doirada olish mumkin. Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi iqtisodiyot sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, buning

natijasida yana bir qancha iqtisodiyot sohasida yangi neologizmlarni yuzaga kelishiga olib keladi. Umuman baynalmilal iqtisodiy so‘zlarni o‘zbek tiliga qabul qilishda ko‘p jihatlarni e’tiborga olmoq lozim. Iqtisodiy termin o‘zbek tiliga kirib kelayotganda uning quyidagi jihatlariga e’tibor berish kerak bo‘ladi: terminning o‘zbek tilini tovush tizimiga mosligiga; uning o‘zbekcha muqobili bor -yo‘qligiga; kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga; iqtisodiy terminning mazmuniga; uning sodda va ravonligiga; mohiyatiga va o‘ng‘ayligiga.

Jamiyat a’zolari oldiga yangi tartibda jahon standartlariga mos keladigan davlat yaratish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni o‘rnatish vazifasi uchun ko‘rsatilgan. Bu, sobiq sotsialistik tuzumdan farqli ravishda, jamiyatning yangi foydali jihatlariga mos keladigan yangi munosabatlar va jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Mulkchilik, tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlantirish uchun ham ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan. 2016-yilda, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 15.9 trillion so‘mlik kreditlar ajratilgan, va 2015-yilga nisbatan 1.3 barobarni tashkil etdi. Qiymati 3.3 trillion so‘mlik mikrokreditlar, xalqaro moliya institutlarining 915,206.7 million dollar miqdordagi kredit liniyalari o‘zlashtirilgan.[2]

Energetika sohasida ham intensiv islohotlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda prezident tomonidan qabul qilingan qaror bilan, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini ta’minlash maqsadida 5000 MVt quvvatdagi elektr stansiyalarini qurishni ta’minlash uchun 10 yil mobaynida samarali tadbirlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratishni hamda 2016-yilda qabul qilingan qonunchilik va me’yoriy huquqiy bazaning takomillashtirishini davom ettirishni qat’iyat bilan ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 8 mingdan ortiq oilaviy korxona faoliyat yuritmoqda. Tijorat banklari aholiga bank xizmatlari ko‘rsatish bilan birga, ular tadbirkorlikni rivojlantirish, daromadini oshirish, ish bilan ta’minlashda ham samarali ishlarni olib borayotganlar. Ish joylariga beriladigan kreditning yillik stavka foizi pasayib bordi. Bitta ish joyi yaratgan tadbirkor uchun 9 foiz, ikkita ish joyi yaratganlik uchun 8 foiz, beshta va undan ko‘p ish joyi yaratish uchun esa tadbirkorning kredit stavkasi 6 foizga oshirildi. Bu loyihalar, xalqimizning farovonligini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash maqsadida yaratilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini olib borayotgan roli va ahamiyati katta. 2016-yilda mamlakat 916 yalpi ichki mahsulotining 56.9 foizi ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 4.5 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda jami ish bilan band bo‘lgan aholining

78.1 foizi shu sohada faoliyat yuritmoqda. 2016-yilda 31.8 mingta kichik biznes sub'yeqtari tashkil etildi. [3]

Jahon bankining 2017-yil 31-oktabrda e'lon qilingan "Biznesni yuritish 2018: ish o'rirlari yaratish uchun islohatlar" ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 190 davlati ichida 74-o'rinni egallab, o'tgan yildagi mavqeyini biur yo'la 13 pog'ona yaxshiladi. Mamlakatimiz biznes yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi davlatlar birinchi o'ntaligiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning ishbilarmonligini yaxshilash va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish bo'yicha Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida yetakchiga aylanishga imkon berdi. Tadbirkorlik subyektining davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimining tubdan takomillashtirilgani tufayli O'zbekiston korxonani ro'yxztdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha 11-o'rinni band etdi. 2017-yilda 9 oy davomida o'tgan yilning shu davrdagiga nisbatan 1.3 marta ko'p biznes sub'ektlari tashkil etganining o'ziyoq mamlakatimizda biznes ochishning naqadar oson ekanligidan dalolat beradi.[4]

O'zbekiston xalqi shundan xursandki, birinchi prezidentimiz Islom Karimovning boshlagan samarali ishlari va Shavkat Mirziyoyevning e'tiborli harakatlari mamlakatimizni istiqbolda farovon kunlarga yo'l yetkazmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'naliislari tadbirkorlik va biznes yuritish sohasida mamlakatimizni dunyo davlatlari ichida yetakchi o'rnlarga olib keltirish uchun juda samarali bo'lib kelmoqda.[5]

**Xulosa:** Hozirgi kunimizda yurtimizdagi yangi farmonlar, qarorlar, va qonunlar, shuningdek olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, O'zbekistonning yangi marralarni ko'zlab, mamlakatimizning o'z taraqqiyotida yangi bosqichga qadam qo'yanligini o'ylab qabul qilmoqda. Bu islohotlar mamlakat aholisining farovonligini va turmush darajasini yanada oshirishga qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi qabul qilinganing 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ma'ruzasida tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk daxilsizligini amalda taminlashning davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliish bo'lib qolishini ta'kidlagan. Uning so'zlarida tadbirkor yo'liga to'siq bo'lishni davlat siyosatiga xiyonat deb qabul qilish kerakligini bayon qilgan. Prezident murojaatnomasida ayni paytda, xalqning o'z hayotida ijobjiy o'zgarishlarni ko'rishni istaganini, vatanimiz rivojiga qat'iy ishonch bildirganini ifodalaydi. Xalqimiz o'ziga to'q bo'lsa, uni kelajagi yanada yaxshilanib boradigani. Mamlakatimizning farovonligini yuksaltish va turmush sharoitini yaxshilash - asosiy vazifamizdir, deyilgan prezident. Iqtisodiy farovonlikka erishgan davlatda siyosiy yuksaklikka intilish mumkin. Iqtisodiyotni mustahkamlab, jahon sahnasida rivojlangan davlatlarga raqobat qilish uchun davlat o'z oldiga xalqning ijtimoiy turmush darajasini va oylik ish-haqini o'z vaqtida berib borishi bilan siyosiy mustahkamlikka yetkazib keladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi № PQ – 4477 sonli “2019 – 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi № 207 sonli Qarori.
3. Vaxrushina M. A. Strategicheskiy upravlencheskiy uchet/ M. A. Vaxrushina, M. I. Sidorova. – M.: KnoRus, 2017. -320 s.
4. Solidjonov, Dilyorjon & Nishonqulov, Shohruh. (2021). Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida naqdsiz to`lovlarni kengaytirish orqali yashirin iqtisodiyotni oldini olish. 15. 162-166.
5. Nishonqulov, Shohruh & Samandar, Sayfiddinov & Javlon, Mamasoliyev. (2021). Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va unga qarshi samarali kurashish yo'llari. 1. 310-317.
6. Yuldasheva, D. (2022). Formation of economic terminology-the current stage of development of the terminology of the uzbek language. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
7. Yuldasheva, D., & Karshieva, M. (2022, January). Pertinet to the role of scientist women in the development of the subject uzbek linguistics. In Archive of Conferences (pp. 61-62).
8. Yuldasheva, D. B. Organization of terms as a factor for the improvement of economic sciences [Article]. Euroasian Research Bulletin, 2021. International scientific journal, 2.
9. Bekmurodovna, Y. D., & Bakhodirovich, E. D. (2023). Problems in the era of globalization and innovative solutions to them. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 329-331.
10. Yuldasheva, D. Important features of teaching tourism lexis and literasy to international students. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 205.
11. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
12. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. Science and World. International scientific journal, (2), 90.